
РАСМИЙ МУНОСАБАТ

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar "Xo'jamag'iz" mahallasidagi ko'chalarni asfalt qilish bo'yicha murojaat tarqaldi. Mazkur murojaat shahar hokimligi Ishchi guruhi tomonidan o'rganildi.

Ayni kunlarda mazkur mahalla fuqarolar yig'inida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borildi.

"Xo'jamag'iz" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 14 kilometrdan ortiq ichki yo'llar asfalt qilindi. Ko'chalarni asfalt qilish ishlari uchun qaror asosida 6 mlrd. so'mga yaqin mablag' ajratilgan.

Shuningdek, hududdagi qolgan 5 kilometr masofadagi ichki ko'chalarni asfalt qilish ishlari "Obod mahalla" dasturi orqali amalga oshirish belgilangan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-18 18:00:53